

ONA TILI VA ADABIYOTI FANI DARSLARIDA MURAKKAB MAVZULARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

G‘afur Eshmanov

Toshkent Renissans ta‘lim universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolada oliy ta‘lim muassasalarida “Ona tili va adabiyoti” fani darslarida murakkab mavzularni o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tonik, Aruz, Barmoq, Muxammas, Musamman, Tarkiband, Qit‘a, Tuyuq

**Аннотация:** В данной научной статье рассматривается повышение эффективности преподавания сложных тем на занятиях по дисциплине «Родной язык и литература» в высших учебных заведениях за счёт использования инновационных методов.

**Ключевые слова:** Тоник, Аруз, Бармак, Мухаммас, Мусамман, Таркибанд, Китъа, Туйук

**Annotation:** This scientific article explores ways to enhance the effectiveness of teaching complex topics in the discipline of "Native Language and Literature" in higher education institutions through the use of innovative methods.

**Keywords:** Tonik, Aruz, Barmoq, Mukhammas, Musamman, Tarkiband, Qit‘a, Tuyuq

She‘riyat shoir va o‘quvchi o‘rtasidagi dil suhbatini demakdir. Shoir uchun bu suhbat – yurakni borlig‘i bilan ochmak, o‘quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamakdir. She‘rni anglamoqning o‘zi ham iste‘dod ya‘ni nazokatdir. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo‘shilganda u didga aylanadi. (Erkin Vohidov)

Shoir bo‘lish uchun ham, she‘rni anglovchi iste‘dod egasi bo‘lmoq uchun ham, dastavval, she‘riyating qonun-qoidalarini, uning oddiy texnikasini bilish, uni chuqurroq o‘rganish zarur.

Jahon she‘riyatida asosan 4 ta she‘r sistemasi (tizimi) mavjud. Sillabik, metrik, tonik, sillabo-tonik.

1. Sillabik she‘r sistemasi: Bo‘g‘inlar miqdoriga asoslanadi. Unga o‘zbek, turk, ozarbayjon, uyg‘ur, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari poeziyasidagi she‘r tizimi kiradi.

2. Metrik she‘r sistemasi: Bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Bunday xususiyat grek, lotin, arab she‘riyatiga xosdir.

3. Tonik she‘r sistemasi: Urg‘uli hijolar o‘rtasidagi urg‘usiz bo‘g‘in nisbati erkin bo‘ladi. Ritm hosil bo‘lishi prinsipiga qarab sillabik tonik, dolnik, aksentli she‘rlarga bo‘linadi. Bu rus, ingliz, olmon she‘riyatidagi mustaqil tizimdir.

4. Sillabo-tonik she‘r sistemasi: Bo‘g‘inlarning urg‘uli, urg‘usizligiga, ularning miqdoriga va tartibiga, izchil takrorlanishiga asoslanadi. Bu she‘r sistemasi rus she‘riyatining asosiy qismini tashkil qiladi.

Har bir she‘riy sistema xalq tilininh ichki imkoniyatlari qudrati bilan yaratiladi. O‘zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik-stilistik qurilishi barmoqni milliy she‘riy sistemas sifatida bunyodga keltiradi.

She‘riy tizimlar:

1. Aruz XI asr

2. Barmoq XX asr

3. Oq she'r (nazmdagi nasrlar)

4. Erkin XXI asr

Lirik devonda janrlar quyidagicha joylashadi

1. G'azal

2. Muxammas

3. Musamman

4. Tarkiband

5. Qasida

6. Qit'a

7. Muammo

8. Tuyuq

9. Mustazod

10. Musaddas

11. Tarji'band

12. Masnaviy

13. Soqiynoma

14. Ruboiy

15. Lug'z

16. Fard

Ruboiy

Ruboiyning to'laqonli tahlili 5-10-sinflarda o'tkaziladi.

Navoiy, Bobur, Umar Hayyom, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy ruboiylari tahlil etiladi.

1. Ruboiy mavzusi;

2. Qofiya aniqlanadi;

3. Ruboiy turi;

4. Taassurotlar;

5. Ifodali o'qish;

6. Ruboiy va kvadrtar solishtiriladi.

Tuyuq

1. Turi;

2. Qofiyalari;

3. Tajnislarni aniqlash;

4. Taassurotlar;

Qit'a

1. Qofiyalanishi;

2. Mavzusi;

3. G'azaldan farqi;

4. Taassurotlar;

To'rtlik

1. Vazni;

2. Mavzusi;

3. Qofiya;

4. Taassurot

5. Ifodali o'qish

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil,

Yo'lda quduq bordur, ehtiyoting qil.

Do'st uyida hamram bo'lgan vaqtingda

Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

(Pahlavon Mahmud)

1. "Oh" – dard yo sir. Siringni aytar ekansan, hushyor bo'l, deyiladi.

2. “Yo‘lda quduq bordur, ehtiyoting qil” misrasida nega aynan quduqdan ehtiyot bo‘lish kerak? Chunki quduq Iskandar Zulqarnayn haqida mashhur rivoyatniyodga solar. Sartaroshning quduqqa sir aytib, quduqda o‘sgan qamishdan cho‘pon nay yasab chalganida nay nolasidan Iskandarning shoxi borligi siridan dunyoning boxabar bo‘lishi voqeasi esga tushadi. Shuning uchun ehtiyoting qil, deb ogohlantirmoqda.

3. Pahlavon Mahmud janglarda kuragi yerga tegmagan, hatto muzlamlarning homiysi bo‘lganligini bilgan holda qo‘lni, ko‘zni, dilni tiyishgacha qirgani biroz o‘ylatadi. Insonning nafsiga hatto shayton bas kelolmaydi, deb o‘qiganlarimizga ko‘ra eng qiyin nafsni yengish ekan-da!

4. Ruboiy mazmuni nafsni tiyish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish haqida ekan.

(O‘quvchilar birma-bir berilgan ruboiylarning mag‘zini chaqib, o‘zgalarni ham o‘z bilganlari bilan hayratlarga solib, topganlarini tanishtirib o‘tadilar).

O‘qituvchi tahlil yakunida, albatta, fikrlarni xulosalashi, guruhlarining ishtirokini izohlashi hamda noto‘g‘ri hukmlarda kitobxonni ogohlantiri kerak. Chinakkam bilish shavqiga erishganlar rag‘batlantiriladi.

Darhaqiqat, badiiy asar tahlili o‘quvchini ma’naviyatli, chuqur hissiyotli, yetuk fazilatli bo‘lishiga undaydi. Shuningdek, to‘g‘ri tashkil etilgan badiiy tahlil o‘quvchilarning kitobxon bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Сноски / Iqtiboslar / References

1. Блауг М. Шумпетер, Йозеф А. // 100 великих экономистов до Кейнса. — СПб.: Экономикс, 2008. — С. 333. — 352 с. — (Библиотека «Экономической школы», вып. 42). ISBN 978-5-903816-01-9.
2. Вербицкий А. А., Рыбакина Н. А., Методологические основы реализация новой образовательной парадигмы // Педагогика, 2014, — № 2.
3. Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. [http://www.muslimphilosophy.com/ik /Muqaddimah/ Table\\_of\\_Contents.htm](http://www.muslimphilosophy.com/ik/Muqaddimah/Table_of_Contents.htm). (мурожаат санаси: 29.10. 2022 й.).
4. Корнетов, Г. Б. Парадигмы новых моделей образовательного процесса [Текст] / Г. Б. Корнетов // Педагогика. - 1999. - № 3. - С. 43-49.
5. Кун, Т. Структура научных революций. М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. 365 с. С. 13.